

## **Yuz va jag' sohasidagi sezgi nervlari: fiziologik va patologik holatlar**

**Umarova Fayzixon Nozimjon qizi**

**Ahmadjonova Dilraxon Ilhomjon qizi**

CAMU xalqaro tibbiyot universiteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Alieva Gavharoy Abdumutalipovna**

Central Asian Medical University fiziologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yuz va jag' sohasidagi sezgi nervlarining fiziologik va patologik jihatlari yoritilgan. Trigeminal nerv va uning tarmoqlarining anatomiyasi va funksional ahamiyati batafsil bayon qilinib, ularning nerv tizimidagi roli tushuntirilgan. Shuningdek, trigeminal nevrалgiya, temporomandibular bo'g'im disfunktsiyasi, postgerpetik nevrалgiya kabi patologik holatlar, ularning sabablari, belgilari va davolash usullari ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqot yuz va jag' sohasidagi sezgi nervlari bilan bog'liq kasalliklarni aniqlash va ularni samarali davolash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Trigeminal nerv, yuz sezgi nervlari, trigeminal nevrалgiya, temporomandibular bo'g'im disfunktsiyasi, postgerpetik nevrалgiya, fiziologiya, patologiya

**Аннотация:** В статье описаны физиологические и патологические аспекты состояния чувствительных нервов лица и челюсти. Подробно описаны анатомия и функциональное значение тройничного нерва и его ветвей, объяснена их роль в нервной системе. Также рассмотрены такие патологические состояния, как невралгия тройничного нерва, дисфункция височно-нижнечелюстного сустава, постгерпетическая невралгия, их причины, симптомы и методы лечения. Это исследование обеспечивает

важную научную основу для выявления и эффективного лечения заболеваний, связанных с сенсорными нервами лица и челюсти.

**Ключевые слова:** тройничный нерв, лицевые чувствительные нервы, невралгия тройничного нерва, дисфункция височно-нижнечелюстного сустава, постгерпетическая невралгия, физиология, патология.

**Abstract:** This article discusses the physiological and pathological aspects of the sensory nerves of the face and jaw. The anatomy and functional significance of the trigeminal nerve and its branches are described in detail, and their role in the nervous system is explained. Also, pathological conditions such as trigeminal neuralgia, temporomandibular joint dysfunction, postherpetic neuralgia, their causes, symptoms and treatment methods are considered. This study creates an important scientific basis for the identification of diseases associated with the sensory nerves of the face and jaw and their effective treatment.

**Keywords:** Trigeminal nerve, facial sensory nerves, trigeminal neuralgia, temporomandibular joint dysfunction, postherpetic neuralgia, physiology, pathology

Yuz va jagʻ sohasidagi sezgi nervlari insonning kundalik hayotida muhim rol oʻynaydi, chunki ular tashqi muhitdan keladigan turli signallarni markaziy asab tizimiga yetkazadi. Ushbu maqolada yuz va jagʻ sohasidagi asosiy sezgi nervlarining fiziologiyasi hamda ular bilan bogʻliq patologik holatlar koʻrib chiqiladi.

Yuz va jagʻ sohasidagi sezgi nervlari, asosan, trigeminal nerv (n. trigeminus) tarmogʻiga kiradi. Ushbu nerv besh juft kranial nervlardan biri boʻlib, uchta asosiy tarmoqqa boʻlinadi: [1,2]

1. Oftalmik tarmoq (n. ophthalmicus): Yuqori qovoqlar, peshona va burunning yuqori qismi sezgilarini ta'minlaydi.

2. Maksillyar tarmoq (n. maxillaris): Yuqori jagʻ, burun boʻshligʻi, burun yon sohalari va yuqori lablar sezgisini oʻtkazadi.

3. Mandibulyar tarmoq (n. mandibularis): Pastki jagʻ, pastki lablar, tilning old uch qismi (sensor sezgilar) va chaynash mushaklarini innervatsiya qiladi.

Trigeminal nervning sezgi tolalari yuz terisidagi mexanik, termal va ogʻriq signallarini markaziy asab tizimiga yuboradi. Ushbu signal dorsal gangliyalarda qayta ishlanib, miyaga yoʻnaltiriladi.

Trigeminal nevrалgiya – trigeminal nervning patologiyasi boʻlib, yuzda keskin va kuchli ogʻriq bilan namoyon boʻladi. Kasallikni kelib chiqish sabablari asosan, nervning qon tomirlari tomonidan siqilishi, oʻsma yoki MS kabi markaziy asab tizimi kasalliklari. Kasallik belgilari yuzning bir tomonida toʻsatdan boshlanadigan kuchli ogʻriq, bu gaplashish, ovqatlanish yoki yuzni yuvish paytida qoʻzgʻalishi mumkin. Davolash usullari dori-darmonlar (karbamazepin, gabapentin), radiojarrohlik yoki mikrojarrohlik usullari. [3]

Temporomandibular boʻgʻim disfunktsiyasi (TMJD) yuz va jagʻ sohasidagi sezgi nervlarining qoʻzgʻatilishiga olib keladi. Buning sabablari stress, notoʻgʻri chaynash, tish-tishlam anomaliyalari. Kasallik belgilari: Jagʻ sohasida ogʻriq, cheklangan harakat, quloq shovqini. Davolash usullari esa fizioterapiya, dorilar, boʻgʻimning maxsus apparatlar bilan stabillashuvi. [4]

Postgerpetik nevrалgiya herpes zoster virusi trigeminal nervga taʼsir qilishi natijasida yuzga keladi. Belgilari yuzda toshmalar, ogʻriq, kuyish yoki qichishish hissi. Davolash antivirus preparatlar, ogʻriqni kamaytiruvchi dori-darmonlar.

Sinir siqilish sindromlari trigeminal nervning turli sohalarda siqilishi yuz va jagʻ sohasida sezgi buzilishlariga olib kelishi mumkin. Bu koʻpincha jarrohlik, shikastlanish yoki qon tomir patologiyalari bilan bogʻliq boʻladi.

Bell falaji holatida yuz nervining shikastlanishi yuz mushaklarining falaji va sezgi buzilishlariga olib keladi. Belgilari asosan bir tomonlama yuzda harakatsizlik, og'riq yoki sezgi pasayishi. Davolash choralari kortikosteroidlar, fizioterapiya. [5,6]

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki yuz va jag' sohasidagi sezgi nervlari fiziologik jarayonlarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, patologik holatlarda esa sezilarli noqulayliklar va hayot sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Erta tashxis va davolash ushbu kasalliklarning og'irligini kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois, bu sohadagi muammolarni e'tiborsiz qoldirmaslik zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Guyton & Hall. "Tibbiyot fiziologiyasi" .648–659
2. Standring S. "Gray's Anatomy: The Anatomical Basis of Clinical Practice" 428–439
3. Moskowitz MA, Buzzi MG. "Trigeminal nevrалgiya fiziopatologiyasi."Nashr: Journal of Neurology .112–118 (1991-yilgi nashr)
4. Bell's Palsy Association. "Yuz nervi va uning patologiyalari."95–104
5. McCance KL, Huether SE. "Patofiziologiya: Kasalliklarning klinik kontseptsiyalari." 732–740
6. Nevrologiya bo'yicha milliy qo'llanma (National Institute of Neurological Disorders and Stroke - NINDS) ninds.nih.gov